



TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI

Fayzullayeva Sojida

O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali

ORCID: 0009-0008-4903-6190

sojidafoyzzullayeva44@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm xizmatlarini tashkil etishning obyektiv zaruriyati hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, xizmatlar bozoridagi ulushi va bandlikni oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, turizm xizmatlarini samarali tashkil etish orqali milliy daromadni ko'paytirish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada turizmning ijtimoiy ahamiyati sifatida millatlararo madaniy muloqot, aholining madaniy-ma'naviy saviyasini yuksaltirish va turizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarning roli yoritilgan. Tadqiqotda turizm xizmatlarini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari va ularni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm xizmatlari, obyektiv zarurat, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyat, barqaror rivojlanish, infratuzilma, bandlik, innovatsion yondashuv.

ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ И ИХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

Файзуллаева Сожид

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана

Аннотация. В данной статье научно обоснована объективная необходимость организации туристических услуг, а также раскрыта их социально-экономическая сущность. Проанализирована роль туристической сферы в национальной экономике, ее доля на рынке услуг и значение в повышении занятости населения. Кроме того, рассмотрены возможности увеличения национального дохода, развития региональной инфраструктуры, создания новых рабочих мест и повышения уровня жизни населения посредством эффективной организации туристических услуг. В статье также освещается социальное значение туризма как фактора межкультурного диалога, повышения культурно-духовного уровня населения и роль инновационных подходов, направленных на устойчивое развитие туризма. В ходе исследования определены приоритетные направления организации туристических услуг и разработаны рекомендации по их развитию.

Ключевые слова: туристические услуги, объективная необходимость, социально-экономическая сущность, устойчивое развитие, инфраструктура, занятость, инновационный подход.

THE OBJECTIVE NECESSITY OF ORGANIZING TOURISM SERVICES AND THEIR SOCIO-ECONOMIC ESSENCE

Fayzullayeva Sojida

Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan

Abstract. *This article scientifically substantiates the objective necessity of organizing tourism services and reveals their socio-economic essence. The role of the tourism sector in the national economy, its share in the services market, and its importance in increasing employment are analyzed. In addition, the opportunities for increasing national income, developing regional infrastructure, creating new jobs, and improving the living standards of the population through the effective organization of tourism services are examined. The article also highlights the social significance of tourism as a factor of intercultural dialogue, the enhancement of the cultural and spiritual level of the population, and the role of innovative approaches aimed at sustainable tourism development. The study identifies the priority directions in the organization of tourism services and develops recommendations for their improvement.*

Keywords: *tourism services, objective necessity, socio-economic essence, sustainable development, infrastructure, employment, innovative approach.*

Kirish.

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda turizm sohasi nafaqat iqtisodiy rivojlanishning, balki ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Turizm xizmatlarini tashkil etishning obyektiv zaruriyati, bir tomondan, aholining dam olish va sayohatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish zaruratidan, ikkinchi tomondan esa milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish talablaridan kelib chiqadi. Shu bois turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini chuqur ilmiy tahlil qilish va uni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda (UNWTO, 2019).

Turizm xizmatlari milliy daromadni ko'paytirish, bandlik darajasini oshirish, hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va aholining turmush sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, turizm madaniy merosni asrash, millatlararo muloqotni mustahkamlash, ekologik muhofaza choralarini rivojlantirish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ham beqiyos ijtimoiy vazifalarni bajaradi (OECD, 2020).

O'zbekiston sharoitida turizm xizmatlarini tashkil etishning obyektiv zaruriyati, avvalo, mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy-geografik imkoniyatlari va xalqaro sayyohlik talabining ortib borishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, davlat tomonidan qabul qilinayotgan turizmni qo'llab-quvvatlash siyosati, vizasiz tartiblarning kengaytirilishi, infratuzilma va servis sifatining yaxshilanishi turizm xizmatlarining samarali tashkil etilishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Prezidentimiz Mirziyoyev (2020) ta'kidlaganidek: "Turizmni rivojlantirish – mamlakat iqtisodiyotining drayveri bo'lishi bilan birga, xalqimizning turmush darajasi va hayot sifatini oshirishga xizmat qiladigan muhim yo'nalishdir".

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot turizm xizmatlarini tashkil etishning obyektiv zaruriyatini asoslab berish, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berish va sohaning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyotda turizm va uning iqtisodiy mohiyatini yorituvchi turli ta'limotlar va nazariy yondoshuvlar mavjud. O'zbekistonlik olimlardan To'xlievning (2010) ta'rificha, "Turizm (frans. tour – sayr, sayohat) – sayyodlik, safar qilish, faol dam olish turlaridan biri bo'lib, jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa

maqsadlarda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmaydigan holda jo'nab ketishi" sifatida izohlanadi.

Amonboyev, Abidova, Jurayevarlar (2019) "turizm dam olish tuzilmasini yaratadi, u nafaqat turistlar tomonidan, balki mahalliy aholi uchun ham foydalanishi mumkin, yangi turizm markazlarining paydo bo'lishi, yo'llarning qurilishi, hordiq chiqarish korxonalarining vujudga kelshiga olib keladi va u o'rab turgan infratuzilma, iste'mol bozori va boshqa tadbirkorlik faoliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi».

Shuningdek, Hamidov (2015) turizmning murakkab va ko'p qirrali mohiyatini alohida ta'kidlab, uni ekologik barqaror rivojlanish yo'nalishi, iqtisodiy faoliyat turi, rekreatsiya shakli, milliy iqtisodiyot tarmog'i va bo'sh vaqtni samarali o'tkazish vositasi sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, turizm ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish, qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda mintaqaviy iqtisodiyotni yuksaltirish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birga, boy tabiiy va madaniy-tarixiy ob'ektlardan samarali foydalanishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

MDH olimlaridan Endjeychikning (2008) tadqiqotlarida turizmning iqtisodiy mohiyati ko'p jihatdan uning multiplikativ samara ta'siri bilan izohlanadi. Unga ko'ra, turizm sohasida yaratilgan bitta ish o'rni turizm bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa sohalarda yettita yangi ish o'rni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Turizm xizmatlarini tashkil etishning obyektiv zaruriyatini ilmiy asoslash, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berish va turizmning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash, shuningdek, sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahonning rivojlangan davlatlarida tovarlar va xizmatlar bozor isifatli tovar, xizmatlari bilan yetarli darajada ta'minlangan, mazkur mamlakatlarda aholi bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalash va kishilarning turmush darajasiga bevosita ijobiy ta'sir qilish nuqtai nazaridan barcha bozorning turlari bilan tuzilmaviy jihatdan mustahkam bog'langanligi nuqtai nazardan farqlanadi. Bugungi kunda turizm aksariyat mamlakatlarda milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. BMT Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlarga ko'ra, mazkur soha xizmatlarini ko'rsatishdan tushadigan daromad 1.5 trillion AQSH dollarini tashkil etmoqda (info@icc.uz, n.d.). Dunyo yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan ko'prog'i, jahon eksportining 7 foizidan ziyodi, umumiy bandlik ko'rsatkichining esa 8 foizga yaqini aynan shu soya hissasiga to'g'ri keladi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston 1993 yildan buyon Jahon sayyohlik tashkilotining a'zosi hisoblanadi. Samarqandda Jahon sayyohlik tashkilotining Buyuk Ipak yo'lidagi mintaqaviy markazi 2004 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Mamlakatimizda turizm salohiyati jihatidan yuqori imkoniyatlarga ega bulgan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ekoturizm, agroturizm, arxeologik, etnografik turizm singari noana'naviy turlarining rivojlantrish amaliyotchi mutahasislar tomonidan alohida e'tirof etilmoqda. Takidlash lozimki mamlakatimizda turizm xizmatlarining o'rni va istemolchilar uchun mo'ljallangan turizm obyektlarning maqbulligi, havsizligi, transport va mehmonxona xizmatlari sayyohlik logistikasi bilan bog'liq barcha xizmatlarning qulayligi, zamonaviyligi ta'minlanmoqda.

Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarning kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekistonning geografik o'rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy-iqlim sharoitiga egaligi insoniyat madaniy taraqqiyotida ham kata o'rin tutadi. O'zbekiston iqtisodiy barqaror davlatlar qatoriga kirib, nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar, ajoyib milliy an'ana, urf-odatga ega, xalqi esa mehmondo'stligi bilan ajralib turadi. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini tortadi va turistik sayohatlarga chiqishga undaydi.

Bu o'ziga xos xususiyatlar turizm xizmatlarini tashkil etishning obyektiv zaruriyatini ko'rsatib beradi va shu bilan birga mazkur xizmat turning iqtisodiy mohiyatini chuqurroq o'rganishni taqozo qiladi.

Ma'lumki, turizm bir necha xizmat va faoliyatlarining murakkab majmyi bo'lib, ular hududiy darajadagi son-sanoqsiz o'zaro aloqalar bilan o'zaro uyg'unlashib ketadi. Bu aloqalar boshqa ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini qamrab oladi va turli sektorlar va amalda barcha darajalarda ko'plab ijrochilar ishtirok etadi uning o'ziga xos jihatlarini o'rganish asosida chuqur tushunib olish zarur.

Turizm xizmat sohasi iqtisodiyot, turistik ob'ektlar bilan iste'molchi o'rtasidagi munosabatini ifodalab 1-jadvalda zamonaviy sharoitda uning ekologik turizm, agroturizm, arxeologik, etnografik, ekstremal sharoitlar turizmi va boshqalar shakllana boshladiki, bugungi kunda ushbu yo'nalishlar mutaxassislar tomonidan tez taraqqiy qilayotgan sohalar sifatida e'tirof etilmoqda.

Mintaqada turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan yangi turizm marshrutlari turizmni zamonaviy talablar asosida tashkil qilishni yanada jadallashtirish, xalqaro turizm brendi va infratuzilma ob'ektlarini barpo etishga alohida e'tibor qaratiladi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqada turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Turizmning xizmatlari	Turizm xizmatlari turlarining xususiyati
Turizm qishloqlari	Turizm qishloqlari o'z qadriyatlarini saqlagan, turmush tarzi va an'analarini targ'ib qilayotgan, sayyohlar e'tiborini jalb qilayotgan ob'ektlar bo'lib, ichki turizm bozorini kengaytiradi
Tog' va sport sog'lomlashtirish	Sport, davolash, sog'lomlashtirish majmyalarining tashkil qilinishi orqali turistlarning sog'lig'ini saqlashga qaratilgan xizmatlar
Xalqaro turizm brendi	Turizm mahsuloti, xizmatlarini xalqaro va ichki turizm bozorlarida keng targ'ib qilish, turizm imijini mustahkamlash
Turizm infratuzilma ob'ektlari	Turistik mahsulotlarni, xizmatlarni ilgari surishda mavjud binolar, inshootlar, ishlab chiqarishga bevosita bog'liq bo'lmagan, turistik xizmatlarni taqdim etish uchun ahamiyatli bo'lgan ob'ektlar
Turoperatorlik xizmatlari	Komplektlashtirilgan turlarni sotishda vositachi hisoblanib, safarlarga yo'llanmalarni sotish, sayyohlarni joylashtirish (bron qilish, joylashtirish, tashish ovqatlanish, sog'lom, biroq horigan kishining ish qobiliyatini tiklashini ko'zlab sog'lomlashtiruvchi tadbirlar majmyi, ekskursiya va boshqa xizmatlar)

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadvalda, halqaro huquq normalari va qoidalari, turistik menejment va marketing sohalaridagi amaliyot, hamda turizm xizmat bozori konyukturasi haqida yaxshi bilim talab etiladi. Hududlarda turizmni rivojlantirishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: ekoturistik tashkilotlarda turistlarni ko'proq jalb qilish mexanizmi ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiriq etilishini, xorijiy davlatlar bilan ekoturizm sohasidagi hamkorlik aloqalari mustahkamlanishi, ekoturistik tashkilotlar va turagentlarning respublikamizdagi sifatli turistik mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqish va sotish faoliyati qat'iy yo'lga qo'yilishi, turistlar uchun kamida bir necha xil tildagi yo'l belgilarini ko'paytirish, ma'lumot beruvchi markazlar, internet portalini ko'paytirish, aholi gavjum joylarda turistik xaritalarini osish, yo'l chetidagi turistik ob'yektlar haqida ma'lumot beruvchi yo'l belgilarini o'rnatishni ko'paytirish, yagona internet portalida shaharlarda mavjud bo'lgan barcha turistik tashkilotlar, diqqatga sazovor joylar, do'konlar va hokazolar haqidagi barcha ma'lumotlarni o'z vaqtida yangilash" (Aziztoyeva, 2018). Shu o'rinda, turizm jahon savdosining eng yirik tarmog'iga aylanib, hozirgi kunda yer yuzidagi jami tovar va xizmatlar eksportida daromad keltirish bo'yicha ikkita yirik tarmoq-neft qazib olish va

avtomobil sanoatidan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Turizm sohasi jahonda bo'ladigan jami eksportning 10,5 foizini beradi, xizmatlar savdosining esa 35,3 foizi turizmga to'g'ri keladi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan, asrlar davomida qadimiy shaharlari bilan mashhur, tarixiy va madaniy o'tmishga ega O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun real imkoniyatlarga ega.

Tadqiqotida turizm qishloqlari asosan, o'z milliy qadriyatlarini saqlagan, milliy an'analarini keng targ'ib qilayotgan ob'ektlar sifatida, sayoxatchilarni turistik extiyojlarini savdo joylari, ko'ngilochar maskanlar tashkil etgan tadbirkorlar uchun bir qator imtiyozlar belgilanganligiga e'tibor qaratadi, jumladan, tadbirkorlar uch yil mobaynida aylanma vositalardan olinadigan soliqlar, ijtimoiy soliqni 1 foizs tavkada, mol-mulk, yer, suv soliqlarini hisoblangan summadan 1 foizini to'laydi Bundan tashqari turizm qishloqlarida mehmon uylari tashkil etishga 50 milli qondirishga qaratadi, o'tov lagerlari va eko-uylar majmuasiga 300 million so'mgacha, chodir lilagerlar qurishga esa 300 million so'mgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi. Tog' va sport, davolash, sog'lomlashtirish majmyalarining tashkil qilinishi orqali turistlarning sog'lig'ini saqlashga qaratilgan xizmatlar taklif qilinadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston turizm xizmatlari imkoniyatlarning yuqori bulishiga qaramay, bir qator myammolar uchrab kelmoqda. Respublikamiz rahbariyati qo'llayotgan tezkor choralar natijasida global inqirozning iqtisodiyotimizga ta'siri sezilarli darajada himoyalanmoqda. Ushbu sohadan keladigan daromadning bir qismi turizm infratuzilmasiga sarflanadi.

Olib borilgan tadqiqotlarga asosan sayoxat sohasining rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy hamkorlikda ishlayotgan boshqa barcha faoliyat turlarining ham iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga, aholining turmush darajasi va uning sifatini oshirishga hamda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaning jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi nuqtai-nazaridan alohida ahamiyatga ega. Shu o'rinda turizmni barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, turistik xizmatlar bozorini kengaytirish, turizmni boshqarish mehanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekistonda turizmning keng qamrovligi va muhimligi uning davlat iqtisodiyotining strategik tarmoqlar qatoriga kirishini hisobga olgan holda, sifatli turizm xizmatlari bozorining rivojlanishini kengaytirish, istiqbollarini belgilash uchun turizm xizmatlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini ham o'rganish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar /Jumepamypa/References:

Amonboyev, M., Abidova, D.I. & Jurayeva, N.A. (2019) *Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisodiyot*, 226 b.

Aziztoyeva, F.A. (2018) *'Hududlarda turizmni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar', Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, (5), p.7.

Endzheyichik, I. (2008) *Ekonomika turizma. Minsk: Novoye Znaniye*, 312 s.

Hamidov, O.X. (2015) *Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: Fan va texnologiya*, 240 b.

info@icc.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi Ma'lumotlar. Available at: www.info@icc.uz*

Mirziyoyev, Sh.M. (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent, 29 dekabr.*

OECD (2020). *Tourism Trends and Policies. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.*

To'xliiev, N. va boshqalar (2010) *Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Iqtisodiyot*, 356 b.

UNWTO (2019). *International Tourism Highlights. Madrid: United Nations World Tourism Organization.*